

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi) bakalavriat ta’lim
yo‘nalishining malaka talablari*

ЎзР ОУМТВ

Бўйруқ № 367
“21” 08 2023 йил

Toshkent-2023

ISHLAB CHIQILGAN:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil «___» _____ dagi ___ - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi)</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabining qo‘llanishi...	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	<i>60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari.....	4
1.2.3.	<i>60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumi kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3.	Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	7
2.3.2.	<i>60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi)</i> ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	7
2.3.3.	<i>60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi)</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasingning tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma’lumotlar.....	9
	Kerishuv varag‘i	10

1. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining tavsisi

1. **60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi) Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60710400 – *Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar:

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasaining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilarini va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa mansaftor shaxslar.

1.2. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsisi.

1.2.1. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:

60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi) ta’lim yo‘nalishi – fan sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimining tashkilotlari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni mohofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tasarrufidagi viloyat boshqarmalari va tuman bo‘limlari, davlat boshqaruvi organlari, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasbiy ta’limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog‘lik kasbiy sohalari majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:

- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

- tabiatni muhofaza qilish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarda;

- yer resurslari, davlat kadastri va kartografiya davlat qo‘mitalarida;

- qishloq va suv ho‘jaligi vazirligi tizimidagi idoralar hamda «Ekoxarakat» respublika va viloyat bo‘linmalarida;

- ekologik turizm va servisni respublikamizda rivojlantirishga yo‘naltirilgan idora va tashkilotlarda;

- ishlab chiqarish korxonalarida;
 - ekologik yo‘nalishdagi nodavlat tashkilotlari va davlat boshqaruvi idoralarida kompleks masalalarni yechish;
 - lokal, regional, milliy va global tabiiy, antropogen, tabiiy-xo‘jalik, ekologik-iqtisodiy, ijtimoiy va ishlab-chiqarish sistemalari, barcha turdagи xo‘jalik faoliyati ekologik tarkibiy qismlarining boshqarilishi, nazorati, monitoringi, ta’lim, maorif va aholi salomatligi, demografik jarayonlar, barcha darajadagi barqaror rivojlanish dasturlari, tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha muammolari va boshqalar;

60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi) ta him yo namisni bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan so'ng, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lif muassasalarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ekologiya, tabiatshunoslik fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, tabiatni muhofaza qilish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
 - *loyiha-texnologik;*
 - *servis xizmatini ko'rsatish;*
 - *ishlab chiqarish-texnologik;*
 - *tashkiliy-boshqaruv;*

• *tashkiliybosqaruv*,

1.2.4. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi) ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Jlmiv-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot ishlarni tashkil etishda va uni bajarishda bevosita ishtirok etish;
 - mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan malumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohasidagi ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanchimalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish

Tashkiliv-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- atrof muhitni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
 - atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tadbirlarini amalga oshirishni rejalashtirish;
 - tabiat va uning resurslaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va samaradorligini baholashda zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish;
 - atrof muhitni muhofaza qilishda chiqindilarning me'yoriy talab normalariga va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va nazorat qilish;
 - sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

-ishlab chiqarish sharoitlarida atrof muxitga ko'rsatiladigan ta'sir jarayonlari va darajalarini baxolash;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- atrof muhitni muhofaza qilish faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini ta'minlash.

- pullik ta'lif xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlearning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumi kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjalarni va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ta'lif yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi; ta'lif yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'lifni davom ettirishga;

- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadilar;

- tabiatda yo'qolib borayotgan alohida o'simlik va xayvon turlarini muhofaza qilish;

- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

- atmosfera havosini muhofaza qilish;

- ifloslangan havoning inson, o'simlik va xayvonlarga ta'sirini oldin olish;

- havo ifloslanishini kuzatish va nazorat qilish;

- suvlarning sanoat va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishini nazorat qilish;

- yer osti va yer ubti suvlarini muxofaza qilish;

- o'rmon monitoringini o'tkazish;

- noyob daraxtlarni kesilishi bo'yicha qonun xujjatlarni shakllantirish;

- eroziya, sho'rlanish jarayonlarining oldini olish;

- tuproqlarning ifloslanishidan saqlash, cho'llanish jarayonining oldin olish;

- ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida loyihibaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

- amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

- sohaga oid ilmiy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, axborot va imitatcion modellarni ishlab chiqish va tadqiq qilish;

- tabiiy resurslardan foydalanish va tabiiy muhit komponentlariga ta'sir etuvchi faoliyatlarning atrof muhitga ta'sirini baholash jarayonlarini o'tkazish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalgalash oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2.3.1. Kvalifikatsiya: ekolog.

2.3.2. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4920	164
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	630	21
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15

2.3.3. 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tabiat ekologiyasi) bakalavriat ta'lif yo'naliishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiylukda yuqilamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	4920	164	
1.01	OMTB1101	Oliy matematika	240	8	1,2
1.02	UYTB1041	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	FALB2041	Falsafa	120	4	2
1.04	URTB1041	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.05	XJTB1062	Xorijiy til	120	4	1
1.06	DINB204	Dinshunoslik	120	4	4
1.07	SSEB3101	Shahar va sanoat ekologiyasi	360	12	5,6
1.08	BIGB1081	Biogeografiya	180	6	1
1.09	UMKB1041	Umumiylukda yuqilamaning hajmi. Umumiylukda fizika	360	12	1,2
1.10	EKAB1091	Ekologiya asoslari	180	6	1
1.11	HFXB3041	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	2
1.12	OBXB4071	Oziq-ovqat xavfsizligi	180	6	2
1.13	METB3051	Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar	180	6	3
1.14	HZEB2071	Hozirgi zamонning ekologik muammolari	180	6	3
1.15	BEKB1141	Bioekologiya	300	10	3,4
1.16	TAEB1111	Tuproq va agroekologiya	300	10	3,4
1.17	IUEB2061	Iqlim o'zgarishi va ekologik moslashuv	300	10	3,4
1.18	GIEB2071	Gidroekologiya va geoekologiya	240	8	3,4
1.19	TROB4071	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muqobil energetika	180	6	5
1.20	EMEB2121	Ekomonitoring va ekoekspertiza	300	10	5,6
1.21	GEKB3131	Garbologiya va ekotoksikologiya	180	6	6
1.22	USFB3051	O'simliklar fiziologiyasi	180	6	7
1.23	BRAB3051	Barqaror rivojlanish asoslari	180	6	7
1.24	IJEB2071	Ijtimoiy ekologiya	180	6	7
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1200	40	
		Jami	6120	204	4,5,6,7
		Malakaviy amaliyot	630	21	
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15	2,4,6,8
		Jami	1080	36	
		Hammasi	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS: 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, ekosistema, biogeotsenoz, senoz, o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, biologik hilma-xillik, populyatsiya, tur, produsentlar, konsumentlar, redusentlar, litosfera, gidrosfera, atmosfera, landshaft, gorizontal struktura, vertikal struktura, cho'l, adir, tog', yaylov, barqaror rivojlanish, tabiatdan foydalanish, tabiat muhofazasi, noyob turlar, kamyob turlar, endemizm, inson ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, suv muhiti, havo muhiti, tuproq muhiti, ekologik omillar, biotik omillar, abiotik omillar, antropogen omillar, maksimum ta'sirlar, minimum ta'sirlar, suvning ifloslanishi, tuproqning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, sho'rланish, qurg'oqchilik, iqlim o'zgarishlari, globallashuv, mintaqalar muammolari, ichimlik suv, ozon qatlami, ekologik valentlik, ekologik monitoring.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar
iste'molchilari


ISHLAB CHIQILGAN:



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Farg'ona davlat universiteti



O'zbekiston Respublikasi
Fanlar Akademiyasi
Zoologiya instituti

Direktor B. Xolmatov



Guliston davlat universiteti

M.Xodjiev



Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (sanoatda) ta'lif yo'nalishi bo'yicha
malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oly ta'lif muassasalarini va
asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtaida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ____ ” 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Milliy universiteti rektori prof. I.Madjidov va Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori prof. S.M.Turabdjanov birgalikda ToshDTUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lif yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (sanoatda) bakalavriat ta'lif yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oly ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagagi “Oly ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oly ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, Qarorlari va 2023 yil 15-iyundagi “2023/2024 o'quv yili uchun davlat oly ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi F-31-son Farmoyishiga hamda oly ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar hamda Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti sanoat korxonalari ekologiyasi, O'zbekiston Milliy universiteti tabiat bilan bog'liq ekologiya bo'yicha kasbiy kompitensiyalarini inobatga olingan.

Ta'lif yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqlashga tavsiya etish mumkin.

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti rektori, professor**



S.M.Turabdjanov

O'zbekiston Milliy universiteti rektor, professor



I.Majidov

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida
ishlab chiqilgan 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va
sohalar bo'yicha) ta'lif yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar
tayyorlashning tayyorlarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga
qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

T A Q R I Z

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'pisida" gi Qonunini ijro etish, ta'lif mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining Respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lif, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon dapajasiga muvosiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lif yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi №5847-soni farmoni, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-soni qarori hamda O'zR OO'MTV ning 2018-yil 6-iyundagi "Oliy ta'lif yo'nalishlarining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish to'g'risida"gi №87-02-1322-soni buyrug'i, oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga xamda horij tajribalariga muvosiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lif yo'nalishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvosiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lif yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lif oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ularidan samarali foydalana olish kabilalar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasisida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobjiy yechumini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, dala va laboratoriya

amaliyotlariga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Guliston davlat universiteti
rektori, professor



PW

M.Xodjiyev

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida
ishlab chiqilgan 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va
sohalar bo'yicha) ta'lif yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar
tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga
qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

T A Q R I Z

M.Ulug'bek nomidagi O'zMU da 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lif yo'nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig'i va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "2019–2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lif yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lif oluvchilapda chuqup bilim, mustaqil fikplash, yuksak kasb-kop malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar xamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobjiy echimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, dala va laboratoriya amaliyotlariga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingen ma'lumotlarni tahlil kilishga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'lifni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lif makoniga integrallashtirish tamoyilla-riga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'limga muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'limga yo'nalishi bo'yicha bakalavr tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'limga o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga etkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama etuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standaptlash tizimi qoidalapiga talablapini qoniqtipadi xamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

O'zMU Ekologiya kafedrasini
professori



T.Raximova